

**ENANTIOSEMIYA HODISASINING NAZARIY ASOSLARI**

**Normurodova Gulsevar**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada enantiosemiya hodisasining nazariy asoslari, uning tilshunoslikdagi o'rni va semantik tabiati yoritiladi. Enantiosemiyaning yuzaga kelish sabablari, uning antonimiya va polisemiya kabi leksik-semantik hodisalar bilan munosabati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy nutqda enantiosemiyaning stilistik imkoniyatlari va semantik xususiyatlari misollar asosida ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari enantiosemiyaning til tizimidagi murakkab semantik hodisa ekanligini hamda badiiy nutqda obrazlilikni kuchaytirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** enantiosemiya, semantika, polisemiya, antonimiya, leksikologiya, kontekstual ma'no, badiiy nutq, stilistika, semantik qarama-qarshilik.

**Abstract**

This article discusses the theoretical foundations of the phenomenon of enantiosemy, its role in linguistics and semantic nature. The causes of the emergence of enantiosemy, its relationship with lexical-semantic phenomena such as antonymy and polysemy are scientifically analyzed. Also, the stylistic possibilities and semantic features of enantiosemy in artistic speech are shown on the basis of examples. The results of the study show that enantiosemy is a complex semantic phenomenon in the language system and serves as an important tool for enhancing imagery in artistic speech.

**Keywords:** enantiosemy, semantics, polysemy, antonymy, lexicology, contextual meaning, artistic speech, stylistics, semantic opposition.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются теоретические основы феномена энантиосемии, его роль в лингвистике и семантическая природа.

Научно анализируются причины возникновения энантиосемии, её связь с лексико-семантическими явлениями, такими как антонимия и полисемия. Также на примерах показаны стилистические возможности и семантические особенности энантиосемии в художественной речи. Результаты исследования показывают, что энантиосемия является сложным семантическим феноменом в языковой системе и служит важным инструментом для усиления образности в художественной речи.

**Ключевые слова:** энантиосемия, семантика, полисемия, антонимия, лексикология, контекстуальное значение, художественная речь, стилистика, семантическая оппозиция.

Til tizimida soʻzlarning maʼno munosabatlari muhim ahamiyatga ega boʻlib, soʻz maʼnolarining oʻzaro aloqadorligi va qarama-qarshiligi turli semantik hodisalar orqali namoyon boʻladi. Bunday hodisalardan biri enantiosemiya hisoblanadi. Enantiosemiya — bu bitta leksemaning oʻzida oʻzaro qarama-qarshi maʼnolarning mavjud boʻlishi bilan xarakterlanadigan leksik-semantik hodisadir. Enantiosemiya termini ilk bor fanga 1883-yilda chex tilshunos olimi V.Shersl tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, baʼzi soʻzlardagi koʻp maʼnolilik enantiosimiya yuzaga kelishining sabablaridan biridir. Maʼlumki, soʻz maʼnosi tarixiy rivojlanish jarayonida kengayadi, torayadi yoki yangi semantik ranglarga ega boʻladi. Natijada ayrim hollarda soʻzning yangi maʼnosi uning dastlabki maʼnosiga zid boʻlib qolishi mumkin. Masalan, "chilla" soʻzi ikki qarama-qarshi maʼnoda keladi:

1)qishning eng sovuq 40kuni

2)yoqning eng issiq 40 kuni

Shuningdek, "Fotiha" soʻzi ham unashtiruv yoki oʻlik chiqqan xonadonda oʻlimning dastlabki uch kuni hamda hayit kunlari marhumning xotirasi uchun oʻtkaziladigan marosim, taʼziya kabi maʼnolarda ishlatiladi.

Oʻzbek tilida sof enantiosemiya hodisasi nisbatan kam kuzatiladi. Biroq enantiosemik maʼno koʻproq nutq jarayonida, yaʼni funksional va pragmatik omillar taʼsirida yuzaga chiqadi. Xususan, kontekstning hal qiluvchi roli natijasida bir leksema qarama-qarshi semantik qutblarda talqin etilishi mumkin. Shuningdek, kinoya va istehzo kabi uslubiy vositalar enantiosemik maʼnoning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

1)Raisning oxirgi yakunlovchi soʻzi ham maqtovdan nari oʻtmadi.(S.Anorboyev, Oqsoy)

2) Bular mardikorlikka boriladigan yurt sovuq do'zax deyishibdi, u yerdagi mehnat, tirikchilikning maqtovini xo'p keltirishibdi (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Birinchi gapda "maqtov" leksemasining asl lug'aviy ma'nosi — "olqish" mazmunida va ikkinchi gapda bu so'z avvalgisiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatlarda so'zning lug'aviy (denotativ) ma'nosi bilan nutqiy (konnotativ) ma'nosi o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Ko'p ma'nolilik (polisemiya) jarayoni ham enantiosemiyaning shakllanishiga zamin yaratadi, chunki ayrim leksemalar tarixiy taraqqiyot davomida o'zaro qarama-qarshi semantik yuklamalarni qabul qilgan bo'lishi mumkin. Misol uchun, "Mehmon" leksemasi dastlab "yot", "begona kishi" ma'nosi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mutlaqo teskari — "yaqin, e'zozli" ma'nosini olgan. Xuddi shunday "G'alati" leksemasining eski ma'nosi "noodatiy, ajablanarli" mazmunida bo'lgan bo'lsa, hozirgi ma'nosi "yomon, g'ayritabiiy, salbiy" so'zlariga to'g'ri keladi. So'zning ma'nosi ajablanishdan salbiy bahoga o'tgan — semantik siljish qarama-qarshilikka olib kelgan.

Bundan tashqari, emotsional-ekspressiv nutqda, ayniqsa so'zlashuv uslubida, so'z ma'nosining teskari yo'sinda qo'llanishi tez-tez uchraydi:

—"Bilimdonlar", darsga quloq soling!

Badiiy adabiyotda esa enantiosemiya muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri sifatida xizmat qilib, obrazlilikni kuchaytirish, tazod yaratish hamda qahramonlar ruhiy holatini chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

Frazeologik birliklar tarkibida ham enantiosemik xususiyatlar kuzatilib, unda bir komponentning turli kontekstual mazmunlari o'rtasida semantik qarama-qarshilik yuzaga keladi. "Ishga olmoq" va "ishdan olmoq" birikmalarida "olmoq" so'zi o'zaro zid ma'nonlarni ifodlaydi. Og'zaki nutqda esa intonatsiya enantiosemik ma'noni yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, o'zbek tilida enantiosemiya ko'proq tizimli (sof) hodisa sifatida emas, balki nutqiy, kontekstual va uslubiy omillar bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda enantiosemiya semantika, leksikologiya va stilistika nuqtai nazaridan o'rganilib, uning til tizimidagi o'rni hamda badiiy nutqdagi vazifalari alohida e'tibor qaratiladigan masalalardan biri hisoblanadi.

### **Enantiosemiya tushunchasi va uning lingvistik mohiyati**

"Enantiosemiya" termini yunoncha enantios — qarama-qarshi va sema — ma'no so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "qarama-qarshi ma'nolilik" degan ma'noni bildiradi.

Tilshunoslikda bu termin bir leksemaning semantik tarkibida o'zaro zid ma'nolar mavjud bo'lishini anglatadi.

Rus tilshunosi A.A. Reformatskiy tilning semantik tizimini o'rganar ekan, ayrim so'zlar tarixiy taraqqiyot natijasida bir-biriga zid ma'nolarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Y.D. Apresyan esa enantiosemiyani leksik semantikaning o'ziga xos hodisasi sifatida baholab, bitta leksema turli kontekstlarda qarama-qarshi semantik funksiyani bajarishi mumkinligini qayd etadi.

Masalan, og'zaki nutqda "boplabsan" so'zi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- 1) juda zo'r qilibsani
- 2) ishni rasvo qilibsani

Masalan: "Ukam gitarani yomon chalib qo'yadi-da"  
Bu yerda "yomon" so'zi "zo'r" degan ma'noni bildiradi.  
Demak, bitta leksema kontekstga qarab qarama-qarshi semantik vazifani bajarmoqda.

### **Enantiosemiya va boshqa leksik-semantik hodisalar**

Tilshunoslikda enantiosemiya ko'pincha antonimiya va polisemiya bilan qiyoslanadi. Biroq ular o'rtasida muhim farqlar mavjud.

Antonimiya — ikki alohida leksemaning o'zaro qarama-qarshi ma'noni ifodalashidir.  
Masalan: yaxshi — yomon, katta — kichik, uzoq — yaqin.  
Bu holatda qarama-qarshilik ikki xil so'z orqali ifodalanadi.

Enantiosemiyada esa qarama-qarshi ma'nolar bitta leksema doirasida yuzaga keladi.  
Og'zim to'la hayot,

Binafshaning shamoli.

Men sho'x bolakayman,

Otasi tashlab ketgan,

Onasi tashlab ketgan.

Og'zimga to'lib qolgan hayot. (R.Parfi, Sabr daraxti)

Ushbu parchadagi "sho'x" so'zining denotativ ma'nosi "quvnoq" so'ziga to'g'ri kelsada, konnotativ, ya'ni kontekstda ifodalayotgan ma'nosi "baxtiqaro" so'ziga to'g'ri keladi.

Polisemiya — bir soʻzning bir nechta oʻzaro bogʻliq maʼnolarga ega boʻlishidir. Masalan, “bosh” soʻzi tana aʼzosi, rahbar yoki boshlanish maʼnolarini bildirishi mumkin.

Bu maʼnolar bir-biriga zid emas, balki oʻzaro semantik bogʻliqlikka ega.

### **Badiiy nutqda enantiosemiyaning stilistik vazifasi**

Badiiy adabiyotda enantiosemiya muallifning estetik maqsadini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi qarama-qarshi maʼnolarni bir matn doirasida qoʻllab, oʻquvchi tasavvurida kuchli obraz yaratadi.

Masalan poetik matnlarda hayot va oʻlim, sukut va qichqiriq, zulmat va nur kabi qarama-qarshi obrazlar keng qoʻllanadi.

Oʻynagin raqqosa, oʻynagin,

Yorugʻ olam sendan aylansin.

Sen ne da'vo qilursan lekin

Soʻroq belgisiga aylansam,

Oʻynagin, raqqosa oʻynagin. (R.Parfi, Turkiston ruhi)

Bu yerda "yorugʻ olam" soʻzi kinoyaviy (ironiya) maʼno mavjud boʻlib, “yorugʻ olam” tashqi jihatdan erkinlik, ravshanlik va ozod hayot timsoli sifatida berilgan boʻlsa-da, uning ichki semantik qatlamida bu “yorugʻlik”ning nisbiyligi, hatto muayyan darajada shubhali yoki muammoli ekaniga ishora mavjud. Shu jihatdan mazkur birikma kontekstda ikki qutbli maʼno kasb etib, enantiosemik xususiyat namoyon qiladi. Sheʼrda raqqosa obrazi orqali ifodalangan erkinlik gʻoyasi bilan lirik qahramonning “soʻroq belgisiga aylanishi” oʻrtasidagi qarama-qarshilik ham aynan shu kinoyaviy maʼnoni kuchaytiradi. Natijada “yorugʻ olam” nafaqat ozodlik ramzi, balki bu ozodlikning ichki ziddiyatlari, ijtimoiy va maʼnaviy oqibatlarini haqidagi mulohazalarni ham oʻzida mujassamlashtiradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, enantiosemiya tilning murakkab leksik-semantik hodisalaridan biri boʻlib, bir leksemaning oʻzida qarama-qarshi maʼnolarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Bu hodisa til taraqqiyoti, semantik rivojlanish va kontekstual qoʻllanish jarayonlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Badiiy nutqda enantiosemiya obrazlilikni kuchaytirish, poetik paradoks yaratish hamda matnning estetik ta'sirini oshirishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ushbu hodisani o'rganish semantika, leksikologiya va adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent, 2006.
4. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. Moskva, 2004.
5. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika. Moskva, 1974.

<https://ilmiybaza.uz>

<https://in-academy.uz>

<https://inlibrary.uz>